XALQ DEPUTATLARI XATIRCHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 13-avgust VI-91-115-5-77-K/24 Xatirchi tumani

Xatirchi tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-sonli "Yo'l xaritasi" hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xatirchi tumanining ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash masalalarini ko’rib chiqish bo’yicha hududiy komissiyasining “Xatirchi tumaninining Nurota, Navbahor tumanlari hamda Samarqand viloyati bilan ma'muriy-hududiy birliklar chegarasini belgilash to'g'risida”gi yig'ilish bayoni ma'qullansin.

2. Mazkur qaror bilan Xatirchi tumanining ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash masalalarini ko’rib chiqish bo’yicha hududiy komissiyasi tomonidan taqdim etilgan:

Xatirchi tumaninining Nurota, Navbahor tumanlari hamda Samarqand viloyati bilan ma'muriy-hududiy birliklar chegarasining tavsifi l-ilovaga va kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

3. Ushbu qaror Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashiga yuborilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo'jaligi masalalari va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha doimiy komissiya raisi (A.Usmonov) hamda tuman hokimining o'rinbosari (J.Chinniqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



MUSTAFOYEV
IBODULLA XXX

Xalq deputatlari Xatirchi tumani
Kengashining
2024-yil 13-avgustdagi
VI-91-115-5-77-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Navoiy viloyati Xatirchi tumanining chegara
TAVSIFI

Samarqand viloyati, Xatirchi va Nurota tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, soy bo`yi boshlang‘ich 1 - nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik 40°18'02,484", sharqiy uzoqlik 66°11'27,762").*

A dan B gacha Samarqand viloyati yerlari bilan 1-12 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 12422 metr masofada quruq soyga tutrashadi va quruq soy bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 504 metr masofada ekin yeriga o‘tadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 2374 metr masofada quruq soyga tutashadi va soy bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3418 metr, so‘ng yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 572 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1070 metr masofani o‘tib, quruq soy bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'46.868", sharqiy uzoqlik 66°07'40.003").*

2 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1162 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 776 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2078 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 364 metr masofadan keyin quruq ariq bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 836 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1250 metr masofadan so‘ng tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 548 metr masofani o‘tadi, so‘ngra quruq soyning chap tomoni bilan shimoloy yo‘nalishda 256 metr masofada quruq soyni kesib o‘tib, keyin quruq ariq o‘tadi va ariq bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 153 metr masofadan so‘ng tomorqa chegarasi bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 178 metr masofadan so‘ngra ariqqa tutashadi va shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 147 metr masofada o‘tadi, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 144 metr masofadan so‘ng quruq ariq bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 93 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 487 metr masofadan keyin qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 444 metr, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan

sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 266 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 325 metr masofadan keyin qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 142 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 69 metr, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 64 metr masofada quruq soyga tutashadi va soy boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1564 metr, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 630 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi va avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1404 metr masofadan keyin dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1041 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yonalishda 941 metr masofada quruq ariqqa tutashadi va quruq ariq boʻylab umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 1040 metr masofada quruq soyga tutashadi va quruq soy boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda 4067 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'00.528", sharqiy uzoqlik 66°09'32.293").*

3 - nuqtadan chegara chizigʻi quruq soy boʻylab janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1501 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 46 metr masofada quruq soyga tutashadi va soyning oʻng tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1654 metr, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 478 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'42.477", sharqiy uzoqlik 66°08'07.617").*

4 - nuqtadan chegara chizigʻi soyni kesib oʻtib quruq ariqqa tutashadi va ariq boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 340 metr, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 601 metr, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1708 metr, soʻngra gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 326 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 63 metr masofadan soʻng ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 757 metr, soʻngra janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 955 metr masofada kanalni kesib oʻtib, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1092 metr masofada kanalni va Oqdaryo daryosini kesib oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02'29.437", sharqiy uzoqlik 66°05'28.667").*

5 - nuqtadan chegara chizigʻi Oqdaryo daryosining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan gʻarbiy yoʻnalishda 347 metr, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 308 metr, soʻng shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 443 metr, soʻngra janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 750 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 535 metr, soʻng umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2730 metr, soʻngra umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 454 metr, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda yoʻnalishda 335 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'46.077", sharqiy uzoqlik 66°03'08.334").*

6 - nuqtadan chegara chizigʻi Oqdaryo daryosining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 297 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 357 metr, soʻng umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy

yoʻnalishda 1972 metr, soʻngra umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4669 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'37.234", sharqiy uzoqlik 65°59'57.454").*

7 – nuqtadan chegara chizigʻi Oqdaryo daryosining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 5356 metr masofani oʻtib, keyin avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1174 metr masofada Zarafshon daryosini kesib oʻtadi, soʻngra Zarafshon daryosining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 589 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°00'42.466", sharqiy uzoqlik 65°56'49.212").*

8 – nuqtadan chegara chizigʻi Zarafshon daryosining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 3760 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 8150 metr, soʻng umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 4053 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'11.313", sharqiy uzoqlik 65°49'47.591").*

9 – nuqtadan chegara chizigʻi Zarafshon daryosining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 3573 metr, keyin umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 9887 metr, soʻng umumiy shimoliy yoʻnalishda 828 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02'39.271", sharqiy uzoqlik 65°44'11.440").*

10 – nuqtadan chegara chizigʻi Zarafshon daryosining suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 9967 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 1639 metr, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 884 metr, soʻngra umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 4274 metr masofada avtomobil yoʻli koʻprigini kesib oʻtadi, keyin umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 4874 metr masofani oʻtib, daryo boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'46.171", sharqiy uzoqlik 65°36'53.261").*

11 – nuqtadan chegara chizigʻi Zarafshon daryosining suv oqimi boʻylab chap qorgʼogʼi bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 591 metr masofani oʻtib, Samarqand viloyati, Xatirchi va Navbahor tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, daryo qirgʼogʼi boʻyida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'04.717", sharqiy uzoqlik 65°36'51.564").*

B dan D gacha Navbahor tumani yerlari bilan 12-25 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

12-nuqtadan chegara chizigʻi Samarqand viloyati, Xatirchi va Navbahor tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, daryo qirgʻogʻidan Zarafshon

daryosini kesib oʻtib, keyin dala tuproq yoʻlining janubiy tomonidan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurni kesib oʻtib, 485 metr masofada zovur boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°07'18.444", sharqiy uzoqlik 65°37'01.407")*

13-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1938 metr masofada R-48 avtomobil yoʻlini kesib o`tib, keyin zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 821 metr masofada Chovli kanalini kesib oʻtib, soʻng kanal boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°08'34,372", sharqiy uzoqlik 65°38'00,899")*

14-nuqtadan chegara chizigʻi Chovli kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 819 metr masofani oʻtib, keyin kanal boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°08'57,279", sharqiy uzoqlik 65°37'46,644")*

15-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 318 metr masofani, suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1713 metr masofani oʻtib, keyin zovur boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°09'38,162", sharqiy uzoqlik 65°38'43,046")*

16-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy yoʻnalishda 738 metr masofani oʻtib, keyin zovur boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°09'36,332", sharqiy uzoqlik 65°39'12,361")*

17-nuqtadan chegara chizigʻi soyning janubiy tomoni bo`ylab umumiy janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2162 metr masofani o`tib, soy bo`yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°09'13,297", sharqiy uzoqlik 65°40'33,539")*

18-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 555 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°09'23,357", sharqiy uzoqlik 65°40'52,723")*

19-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 892 metr masofani oʻtib, keyin Oqtoshsoy soyining suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 4853 metr masofani oʻtib, soʻng soyning qirgʻogʻida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°10'59,472", sharqiy uzoqlik 65°43'34,263")*

20-nuqtadan chegara chizigʻi Oqtoshsoy soyini kesib oʻtib, dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1931 metr masofani oʻtib, keyin dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°10'27,726", sharqiy uzoqlik 65°44'36,518")*

21-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy yo‘nalishda 864 metr masofani o‘tib, keyin Oqsoqolota soyini sharqiy yo‘nalishda kesib 136 metr masofani o‘tib, so‘ng soyning bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°10'24,774", sharqiy uzoqlik 65°45'08,427")*

22-nuqtadan chegara chizig‘i Oqsoqolota soyining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 11671 metr masofani o‘tib, keyin Qoramasjid soyining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6784 metr masofani o‘tib, so‘ng soyning qirg‘og‘ida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°16'06,239", sharqiy uzoqlik 65°47'52,344")*

23-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chiziq bo‘ylab umumiy shimoliy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3044 metr masofada joylashgan 24-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°17'43.783", sharqiy uzoqlik 65°47'53.285")*

24-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chiziq bo`ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-g`arbiy yo‘nalishda 2619 metr masofani o‘tib, Xatirchi, Navbahor va Nurota tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, tog‘ etagida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°18'21.431", sharqiy uzoqlik 65°46'23.897")*

D dan E gacha Nurota tumani yerlari bilan 25-1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

25-nuqtadan chegara chizig‘i vaqtincha oqar soy bo`ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1674 metr masofada, soy bo`yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'00.561", sharqiy uzoqlik 65°46'45.796")*

26-nuqtadan chegara chizig‘i soy bo`ylab shimoliy-shimoliy-g`arbiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1123 metr masofada, yondosh tomondan qo`shilgan soy bilan kesishgan joyda 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'26,671", sharqiy uzoqlik 65°46'18,661")*

27-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo`ylab shimoliy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1999 metr masofada, dala tuproq yo`lining shimoliy tomonida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°20'29,420", sharqiy uzoqlik 65°46'27,817")*

28-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo`lining shimoliy tomoni bo`ylab janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1007 metr masofada , dala tuproq yo`lining shimoliy qismida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20'21,580", sharqiy uzoqlik 65°47'06,431")*

29-nuqtadan chegara chizig`i dala tuproq yo`lining shimoliy tomoni bo`ylab shimoliy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1560 metr masofada, dala tuproq yo`lining shimoliy qismida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°20'46,485", sharqiy uzoqlik 65°47'49,625")*

30-nuqtadan chegara chizig`i to`g`ri chegara chiziq bo`ylab sharqiy yo`nalishda 340 metr masofani o`tib, keyin quruq soy bo`ylab shimoliy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2606 metr masofada dala tuproq yo`lining shimoliy tomonida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'00,508", sharqiy uzoqlik 65°48'19,027")*

31-nuqtadan chegara chizig‘i dala yo`lining shimoliy tomoni bo`ylab shimoliy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 805 metr masofada dala yo`lining shimoliy tomonida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 40°22'14,464", sharqiy uzoqlik 65°48'45,418")*

32-nuqtadan chegara chizig‘i to`g`ri chegara chiziq bo`ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo`nalishda 110 metr masofani o`tib, keyin quruq soy bo`ylab janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 608 metr masofani, shimoliy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1471 metr masofani o`tib, dala yo`lining shimol tomonida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'45,524", sharqiy uzoqlik 65°48'56,107")*

33-nuqtadan chegara chizig‘i to`g`ri chegara chizig‘i bo`ylab shimoliy-g`arbiy yo`nalishda 191 metr masofani o`tib, keyin quruq soy bo`ylab g`arbiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 269 metr masofa, shimoliy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 994 metr masofani o`tib, keyin chegara chiziq bo`ylab shimoliy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 622 metr masofani o`tib, so`ng quruq soy bo`ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 506 metr masofani o`tib, quruq soyda joylashgan 34-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°23'19,365", sharqiy uzoqlik 65°49'33,027")*

34-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chiziq bo`ylab shimoliy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1159 metr masofani o`tib, tog` cho`qqisida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'44.134", sharqiy uzoqlik 65°49'41.243")*

35-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i bo`ylab janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1381 metr masofani o`tib, soy bo`yida joylashgan 36-nuqtaga o`tadi. *(shimoliy kenglik 40°23'27.407", sharqiy uzoqlik 65°50'25.698")*

36-nuqtadan chegara chizig‘i tog` cho`qqilari bo`ylab janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1335 metr masofani o`tib, tog` cho`qqisida joylashgan 37- nuqtaga o`tadi. *(shimoliy kenglik 40°23'11.357", sharqiy uzoqlik 65°51'07.434")*

37-nuqtadan chegara chizig‘i tog` cho`qqisi bo`ylab umumiy sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2028 metr masofani o`tib, tog` cho`qqisida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'59.612", sharqiy uzoqlik 65°52'16.573")*

38-nuqtadan chegara chizig`i quruq chegara chiziq bo`ylab janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 567 metr masofani o`tib,

keyin soy bo`ylab umumiy janubiy-g`arbiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3408 metr masofani o`tib, soy bo`yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21'48,423", sharqiy uzoqlik 65°51'47,657")*

39-nuqtadan chegara chizig`i sharqiy-janubiy-sharqiy yo`nalishda tog` cho`qqisi bo`ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2621 metr masofani, shimoliy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2566 metr masofani, sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 738 metr masofani o`tib, quruq soy bo`yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'25,661", sharqiy uzoqlik 65°55'07,528")*

40-nuqtadan chegara chizigʻi quruq soy bo`ylab janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 414 metr masofani, shimoliy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1841 metr masofani o`tib, tog` cho`qqisida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'07,263", sharqiy uzoqlik 65°55'38,381")*

41-nuqtadan chegara chizigʻi tog` cho`qqisi bo`ylab umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4003 metr masofani o`tib, tog` cho`qqisida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24'08.986", sharqiy uzoqlik 65°56'34.497")*

42-nuqtadan chegara chizig‘i tog` cho`qqisi bo`ylab umumiy shimoliy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1020 metr masofani o`tib, tog` cho`qqisida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°24'36.224", sharqiy uzoqlik 65°56'53.787")*

43-nuqtadan chegara chizig‘i tog` cho`qqisi bo`ylab umumiy janubiy-sharqiy yo`nalishda 1780 metr masofani o`tib, tog` cho`qqisida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24'21.007", sharqiy uzoqlik 65°57'57.653")*

44-nuqtadan chegara chizig`i tog` cho`qqisi bo`ylab umumiy janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1709 metr masofani o`tib tog` cho`qqisida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24'05.706", sharqiy uzoqlik 65°58'56.942")*

45-nuqtadan chegara chizigʻi tog` cho`qqisi bo`ylab umumiy janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 564 metr masofani o`tib tog` cho`qqisida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'55.246", sharqiy uzoqlik 65°59'14.450")*

46-nuqtadan chegara chizigʻi tog` cho`qqisi bo`ylab janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1657 metr masofani o`tib, tog` choqqisida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'25.217", sharqiy uzoqlik 66°00'12.472")*

47-nuqtadan chegara chizig‘i tog` cho`qqisi bo`ylab umumiy janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3650 metr masofani o`tib, soy bo`yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°21'41.927", sharqiy uzoqlik 66°01'22.952")*

48-nuqtadan chegara chizigʻi tog` cho`qqisi bo`ylab umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1766 metr masofani o`tib, tog` cho`qqisida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21'35,891", sharqiy uzoqlik 66°02'31,773")*

49-nuqtadan chegara chizigʻi quruq soy bo`ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3133 metr masofani o`tib, tog` cho`qqisida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°20'15,799", sharqiy uzoqlik 66°03'09,372")*

50-nuqtadan chegara chizigʻi tog` cho`qqisi bo`ylab umumiy janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2338 metr masofada quruq soyni kesib o`tib, soy bo`yida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°19'46,001", sharqiy uzoqlik 66°04'38,638")*


51-nuqtadan chegara chizigʻi tog` cho`qqisi bo`ylab umumiy janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 10991 metr masofani o`tib, Samarqand viloyati, Xatirchi va Nurota tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, soy bo`yida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°18'02,484", sharqiy uzoqlik 66°11'27,762")*

Xalq deputatlari Xatirchi tumani
Kengashining
2024-yil 13-avgustdagi
VI-91-115-5-77-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Navoiy viloyati Xatirchi tumanining chegara

CHIZMASI

Xalq deputatlari Xatirchi tumani Kengashining 2024 yil "___"_____dagi _____- sonli qaroriga 2-ilova



Shartli belgilar

Xatirchi tumanining chegarasi va yer maydoni

1 *Xatirchi tumani chegarasining burilish nuqtasi va raqami*